

**SEVMOQ**

*Mirzayeva Ziyoda Madhiddinovna*

*Toshkent shahar Chilonzor tuman*

*131-IDUM ning ona tila va adabiyot fani o'qituvchisi*

*zimirzaeva@gmail.com*

"Sevmoq" so'zin qilaman tahlil

Udir iymon,udir iroda

Yashash erur juftila ahil

Javob uchun boqiy dunyoda.

"Sevmoq" so'zin qilman tahlil

Unda yotar mustahkam do'stlik

Behiyonat yashasang ahil

Jannat uchun bo'ladi ko'prik.

"Sevmoq" so'zin qilaman tahlil

Farzandinga bergan joningdir

Tarbiyala juftingla ahil

U dunyodagi qo'rg'oningdir.

"Sevmoq" so'zin qilaman tahlil

Ota -onang beminnat savob,

Hizmatin qil,juftingla ahil

U dunyoda berasan javob.

"Sevmoq" so'zin qilaman tahlil

U sabrdir,u iymoningdir

Juftingla sen ibodat qilgil

Barokating, sof vijdonindir.

## Keksa ona so'zlari

Bolam onam o'lmas dema  
Bir kun men ham o'tarman.  
Dunyo aslo abadiymas  
Manzilimga yetarman.  
Sendan bitta o'tinchim bor  
Har tong meni eslagin.  
Qabrimga nur bo'lib borar  
Tilovating kutarman.  
Bolam qadoq qo'lim doim  
Duoingga ochilar.  
Qattiq gaplar aytsang nogoh  
Yuragimga sanchilar  
Faqatgina o'z onangdir  
Qattiq so'zlab so'ng achinar  
Bolam onam ketmas dema  
Vaqtim kelib ketarman.  
Sen hayrli ishlar qilsang  
Jannatlarga yetarman.  
G'animatman ko'nglimni ol  
Malol olma so'zimni.  
Kelajagingchun qilgan ishlar  
Ajin qildi yuzimni  
To'ylar qilib jufting topting  
Yolg'izlatma o'zimni  
Bolam onam o'lmas dema  
Qazo yetsa o'larman  
Nomim aytib exsonlar qil  
Duolar ol raxmatlar ol  
Jannatlardan turib senga duolarim yo'llarman